O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

# GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

mavzusidagi an’anaviy VII respublika
ilmiy-amaliy anjuman materiallari



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

# GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

***mavzusidagi an’anaviy VII respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari***

**Toshkent – 2023**

**Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti.** Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2023. –500 b.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi tomonidan tayyorlangan.

**Mas’ul muharrir:**

**G. Jo‘rayeva –** filologiya fanlari doktori, professor v.b.

**Taqrizchilar:**

**R. Niyozmetova** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori.

**A. Sobirov** – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori.

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

| | |
|---|---|
| **K. Mavlonova** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |
| **M. Tuychiyeva** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsent v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |
| **D. To‘xliyeva** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori. |
| **S. Kuldasheva** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi |
| **H. Maqsudov** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi. |
| **J. Nurmuhammadov** | Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi. |

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti Kengashining 2023-yil 8-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

# NUTQIY VA LINGVISTIK KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIALI TA’LIMNING O‘RNI

**Zilola Xudoybergenova**
*Bartin universiteti professori (Turkiya)*
**Sanobar Kuldasheva**
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi*

***Annotatsiya***

*Maqolada ona tili darslarida multimedia vositalaridan unumli foydalanish, multimediali texnologiya va topshiriqlarni yaratishda qo‘yiladigan talablar va ularning joriy etilishi haqida fikr yuritiladi. Olim va metodistlarning fikrlari tahlil etiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *virtual olam, kiberpedagogika, multimediali texnologiya, animatsiya, video, faoliyatli yondashuv.*

Keyingi yillarda nutqiy faoliyatda “informatsion portlash”, “virtual olam” degan tushunchalar paydo bo‘ldi. Unga kibero‘qish, kiberxat, kibertalaffuz, kibermuloqot tushunchalari ham singib bormoqda. Hatto kiberpedagogika degan tushunchalar ham fanga kirib keldi. Bular biz odatlangan ko‘rish, eshitish kabi jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillar deb qaralmog‘i kerak. Bu yerda so‘zlarni aniq va to‘g‘ri o‘qishdan, chiroyli va xatosiz yozishdan tashqari ularning rang-barang shakl va ko‘rinishlarga kira olishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda tovushlar, so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplarni ifodali o‘qish vositasida ularning ma’no qatlamlariga ta’sir ko‘rsatish mumkinligi juda ochiq tarzda namoyon bo‘ladi. Natijada, o‘quvchining tegishli ko‘nikma va malakalari tezroq, qulayroq hamda yoqimliroq tarzda amalga oshadi.

A.Garsov ta’kidlaganidek, har bir pedagogik davr o‘ziga xos texnologiyalar avlodini tug‘diradi [Garsov, 2009: 398]. Asta-sekin og‘zaki nazariy ta’limning o‘rnini ko‘rgazmali ta’lim egallay boshladi. “Keyinchalik, ko‘rgazmali ta’lim ham maqbul emasligi aniqlanib, uning o‘rniga faoliyat yondashuvga asoslangan ta’lim kirib keldi” [Suropov, 2019: 149]. Faoliyat yondashuvga asoslangan

ta’limni inson faoliyatining sezgi, his, diqqat, xotira, tasavvur, fikrlash, nutq, aqliy va ruhiy jarayonlari bilan bog‘liq holda qamrab olish axborot asrida tez rivojlanib kelayotgan multimedia vositalari yordamida amalga oshirish samaradorligi tan olindi. Multimedia vositalari bilan ishlanganda o‘quvchi jarayonni bevosita o‘zi kuzatadi, uni boshidan kechiradi va o‘zi xulosa chiqaradi. An’anaviy dars va multimediali darslar solishtirilganda quyidagi afzalliklar ko‘zga tashlanadi: an’anaviy ona tili darsliklarida mavzuga tegishli materiallar matni hamda ba’zi o‘rinlarda statik ko‘rinishdagi rasm beriladi; multimedia ishtirokidagi darslarda mavzuga tegishli material matni, uni sharhlab beruvchi ovoz yoki video, mavzuga tegishli bir nechta rasm, diagramma, jadvallar, animatsiya, musiqaning birgalikda berilish imkoniyati mavjud. “Darslik bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning mustaqil o‘qish, qoidalarni o‘rganish yoki qayta esga tushirish, mashq topshiriqlari asosida grammatik hodisalarni aniqlash va izohlash ko‘nikmalari rivojlantirilsa, multimedia ilovalar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi kuchayadi, tengdoshlari bilan o‘zaro munosabati yaxshilanadi, yangi mavzuni mustaqil o‘zlashtirish va o‘zini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi” [Masharipova, 2018: 160]. Shu bilan birga multimedia vositalaridagi bir necha xillik o‘quvchini qiziqtiradi, fikrlashga undaydi, dunyoqarashini kengaytiradi, bilim, malaka va ko‘nikmani bog‘lab boradi. Mukammal multimediali dars loyihasini yaratish uchun olim, fan o‘qituvchisi hamda kompyuter mutaxassisi birlashmog‘i darkor. Qolaversa, elektron ta’lim resurslarini yaratish uchun qo‘yiladigan maqsad va talablar nazardan chetda qolmasligi kerak.

Multimedia texnologiyalarini yaratish uchun pedagogik, psixofiziologik hamda metodik talablarni inobatga olish zarur. Pedagogik talablarga yaratiladigan mahsulotning davlat ta’lim standartlari, amaldagi o‘quv dasturlariga muvofiq kelishi; psixofiziologik talablarga o‘quvchining yoshi, dunyoqarashi, qiziqishlarini inobatga olgan holda, sodda, aniq, tushunarli va qulay ishlab chiqilishi; metodik talablarga esa o‘rganiladigan o‘quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda, uzviylik ta’minlangan holda, o‘zlashtirilgan bilim darajasining murakkabligini inobatga olib turli metodlar asosida ishlab chiqilishi lozim. Bundan tashqari texnik,

estetik, didaktik va boshqa talablar bilan mutanosiblashtirilsa, ilmiy, tushunarli, uzluksizlik va yaxlitlik ta'minlangan, mavzu tizimli yoritilgan, muloqotning interfaolligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirishning yaxlit birligi inobatga olinsa, talab va ijro uyg'unligida ijobiy natijaga erishiladi.

Ona tili darslarida foydalanish uchun multimedia texnologiyalarini yaratishda multimedia shartlarini e'tiborsiz qoldirish ham tayyorlangan darsni didaktik nuqtayi nazardan muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Afsuski, ko'pgina o'qituvchilar multimedia vositalaridan foydalanishda kichik detallarga e'tibor bermaydilar. Proyektordan foydalanish uchun sinf xonasining derazalarini parda bilan to'smaslik lozim, aksincha, proyektor yoki interfaol doskani chiroq nuri tushmaydigan zonada joylashtirish va undagi ranglarga alohida e'tibor qaratish muhim. Sinf xonasi multimedia darslarini o'tishga jihozlanmagan bo'lsa, multimedia darslarini informatika xonalarida o'tkazish maqsadga muvofiq.

Mazkur talablar asosidagi innovatsion yondashuv o'quvchilarda yangi tajriba orttirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni anglash, kelajakka intilishni rivojlantirish bilan birga mustaqil intellektga ega shaxsni tarbiyalash uchun samarali omil vazifasini o'taydi. Yana bir imkoniyatli tomoni shundaki, multimediyali ishlanmalardan sinfdagi dars mashg'ulotlarida, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash mashg'ulotlarida, past o'zlashtiruvchilar bilan ishlash mashg'ulotlarida, ona tili to'garaklarida, shuningdek uyda mustaqil ishlash uchun foydalaniladi. Faqatgina o'qituvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishning tezligi, material miqdori, qiyinchilik darajasini belgilash hamda, eng asosiysi, o'quvchida kerakli media vositalaridan o'rinli foydalana olish malakasi va madaniyatini shakllantirgan bo'lishi talab etiladi. Olimlar ta'limda multimediali texnologiyalardan foydalanish orqali bir qator ijobiy omillarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

Ona tili ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish uchun amaliy vositalarni tanlash, saralash, darsning maqsadidan kelib chiqib multimedia ssenariylarini yozish bevosita fan o'qituvchilarining tashabbusi bilan amalga oshiriladi. O'z g'oyalarini mahsulotga aylantirishda dasturlovchi mutaxassislar bilan hamkorlik o'rnatiladi. Multimedia texnologiyasini yaratishdagi texnologik

jarayon quyidagicha amalga oshiriladi: dastlab g‘oya asosida ssenariy yoziladi. Mavzuga doir yakka tartibdagi ma’lumotlar (taqdimotlar, matn, jadval, tasvir, sxema, diagramma, audioyozuvlar) tayyorlab olinadi. Barchasi bitta papkada jamlanib texnologik ishlov (animatsiya harakatlari, rang, ovoz) beriladi. Multimediali axborot majmuasi hosil qilinadi va saqlanadi (Qarang: 1-rasm).




**1-rasm. Multimedia texnologiyasi**

Ona tili ta’limida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish masalalari davlat ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan sanaladi. Ammo ona tili o‘qituvchilarining aksariyati kompyuter imkoniyatlaridan foydalanish deganda, faqatgina matn muharriri va Power Point dasturlaridan foydalanishni tushunishadi. Aslida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan bir qancha dasturlar borki, ona tili fani o‘qituvchilari bunday dasturlarning afzalliklaridan bexabar [Muhammedova, Abdullayeva, Yuldasheva, Eshmatova, 2020: 263]. Odatda, fan o‘qituvchilari bunday loyihalarni kompyuter dasturchilari bilan amalga oshiradilar. Kompyuter dasturchilari yaratiladigan mahsulotning sifati bo‘yicha yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lishi mumkin, ammo metodik talablariga to‘la-to‘kis javob berolmaydilar. Shuning uchun zamonaviy ona tili o‘qituvchilari nafaqat o‘z mutaxassisliklarini,

balki dasturiy multimedia mahsulotlarini yarata olish malakasini ham egallashlari lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Гарцов А.Д. Электронная лингводидактика в системе инновационного языкового образования. Дисс. на соискание уч. степени кандидата педагогических наук. Москва – 2009. С.398.
2. Суропов Б. Электрон таълим муҳитида ахборот коммуникация технологиялари фанини ўқитишнинг методик таъминотини такомиллаштириш. Пед.фан.б. фал. док. … дис. – Тошкент, 2019. – 149б.
3. Машарипова У.А. Инновацион таълим шароитида бошланғич синф ўқувчиларининг нутқ маданиятини шакллантириш методикаси. Пед.фан.б. фал. док. … дис. – Тошкент, 2018. – 160б.
4. Muhammedova S., Abdullayeva M., Yuldasheva Sh., Eshmatova Y. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: “Excellent Polygraphy”, 2020. – B.263.
5. Шлыкова О.В. Культура мультимедиа: Уч. Пособие для студентов / МГУКИ. – Москва, ФАИР-ПРЕСС, 2004. – С.415

# OG‘ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Nilufar Berdiyeva**
*Alisher Navoiy nomidagi*
*ToshDO‘TAU o‘qituvchisi*

***Annotatsiya***

*Bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantirish ularning kelajagi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon. Ushbu maqola talabalarda og‘zaki nutqni rivojlantirish metodlarini va ularda nutqiy malakalarni rivojlantirish texnologiyalarini aks ettiradi.*

***Kalit so‘zlar:*** *nutqni rivojlantiruvchi o‘yinlar, semantik assotsiatsiyalar, interfaol usullar, assotsiatsiyalash g‘oyalari, kommunikativ yo‘nalish*

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobilyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir.

(A.A.Leontyev)

## MUNDARIJA


| | |
|---|---|
| **Sirojiddinov Sh.** So'zboshi | **3** |
| **GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA** | |
| **To'xliyev B.** Alisher Navoiy ijodini o'rganishning dolzarb masalalari | **5** |
| **Niyozmetova R.** Milliylikning badiiy asalarni o'rganishdagi o'rni | **11** |
| **Mirqosimova M.** O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish | **15** |
| **Yusupova Sh.** Ona tili o'qitishda tasavvurning o'rni | **20** |
| **Abdullayeva M.** Adabiy ta'limda ilmiy yondashuv usullari | **29** |
| **Mirzayeva Z.** Badiiy asar tahlili: lokaldan globalga | **35** |
| **Yuldasheva D., Yusupova T.** O'rta maxsus bo'g'inda ona tili ta'limi | **45** |
| **Kambarova S.** Matnni tushunish texnikasini o'rgatish – o'qish takstikasini shakllantirish vositasi | **52** |
| **Kadirova N.** Konstruktivistik ta'lim xususiyatlari | **57** |
| **ADABIYOT O'QITISH MUAMMOLARI: YECHIM VA TAKLIFLAR** | |
| **Matchonov S.** Dilshod Rajab she'riyatida ruhiyat talqini | **65** |
| **Jurayeva G., Gurel Z.** Bolalar adabiyotini o'qitishda hajviy she'riyatning ahamiyati (Muazzam Ibrohimova ijodi misolida) | **71** |
| **Abdurahmonova B.** Yusuf Xos Hojibning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari | **78** |
| **Ismoilov I.** Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonini o'qitish masalalari | **82** |
| **To'xtayeva N.** Mustaqillik davri o'zbek bolalar she'riyati | **87** |
| **Tuychiyeva M.** Matn orqali o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish | **91** |
| **Tuxliyeva D.** Avaz O'tar g'azalining yangicha o'quv tahlili | **95** |
| **Ishonxanova I.** Alisher Navoiy hikmatlarining ta'limdagi o'rni | **102** |
| **Aliqulova H.** O'zbek va qozoq yor-yor qo'shiqlarining janr tabiati | **107** |

| | |
|---|---|
| **Nabijanov Y.** Grafik organayzer – infografikalar va ulardan foydalanish | **112** |
| **Jazilova M.** Matn ustida ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari | **117** |
| **Nazarova D.** Xoja hikoyatlarida adolatparvarlik gʻoyalari talqini | **127** |
| **Inomjonova S.** Oʻzbek bolalar adabiyotida fantastik asarlar oʻrganilishining ahamiyati | **134** |
| **Nurmuhammadov J.** Adabiy laboratoriya: podkast yaratish mashgʻulot turi sifatida | **144** |
| **Norqulova M.** Xalq ogʻzaki ijodini oʻqitishdagi muammolar tahlili (5-sinf darsligi misolida) | **150** |
| **Elboyeva M.** Uzluksiz adabiy ta’lim dastur va darsliklarida bolalar adabiyotini oʻrganish masalasi | **155** |
| **Yuldasheva M.** Adabiyot darslarini tashkil etishda ijodiy individuallik | **160** |
| **Shukurboyeva O.** Kompetentli shaxsni shakllantirishda adabiyot darslarining oʻrni | **164** |
| **Karimova Y.** Poetik tafakkur masalasining oʻrganilishi | **169** |
| **Ulugʻmurodova K.** Temuriylar davri she’riyatida Layli timsoli (Atoyi va Sakkokiy ijodi misolida) | **175** |
| **Jumaniyozova I.** Ijod maktablarida mumtoz namunalarning oʻqitilishi | **182** |
| **Musaeva O.** Oʻzbek tili va adabiyot darslarida oʻquvchilarni ijodkorlikka chorlash | **187** |
| **Qayimova Sh.** Adib estetikasining shakllanishida ijtimoiy omillarning oʻrni | **195** |
| **Abdullayeva M.** Bolalar adabiyotini oʻqitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy asoslari | **201** |
| **Abdurashidova Sh.** Ta’sir va tipologiya | **206** |
| **Toʻgʻonova D.** Adabiyotni oʻrgatish yoʻllarini oʻrganish (dramatik asarlar misolida) | **212** |
| **Narziyeva M.** Dramatik asarlarni sahnalashtirib oʻqitish usullari | **216** |
| **Anvarova Z.** Mustaqil ishlar vositasida oʻquvchilarni adabiy-estetik tahlilga oʻrgatish | **221** |

| | |
|---|---|
| **Ergasheva N.** O‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda grafik organayzerlardan foydalanish usullari | **227** |
| **Maxsumov M.** Yusuf Saryomiy devoni manbalari tadqiqi | **236** |
| **Vohidova M.** Muhammad Namangoniy – Foyiq she’riyati tahlili | **244** |
| **Meyliyeva N.** Alisher Navoiyning “Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz” ruboiysi vazni metodikasi | **252** |
| **Rayimqulova D.** Jamshid obrazining “Avesto” va mumtoz adabiyotdagi talqini | **255** |
| **Qoryog‘diyeva S.** Adabiy lug‘atlar haqida | **260** |
| **Qulsaxatov F.** Uzluksiz ta’lim tizimida integrativ yondashuv (Bobur ijodi talqinida) | **267** |
| **Djalilova M.** Odil Yoqubov dramaturgiyasida amir temur obrazi tasviri | **277** |
| **Kuchkarova K.** Oybekning qahramon xarakterini tasvirlash mahorati | **281** |
| **ONA TILI TA’LIMIDA O‘QITISH VA BAHOLASH MUAMMOLARI** | |
| **Ahmedov H.** O‘zbek tilidan rivojlantiruvchi topshiriqlar bo‘yicha mulohazalar | **285** |
| **Mavlonova K.** Matn tuzishni o‘rgatishda darsliklardagi o‘quv materiallaridan foydalanish mazmuni | **290** |
| **Xudoybergenova Z. Kuldasheva S.** Nutqiy va lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishda multimediali ta’limning o‘rni | **296** |
| **Berdiyeva N.** Og‘zaki nutqni rivojlantirish usullari | **300** |
| **To‘rayeva Sh.** Imlo savodxonligini rivojlantirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish | **304** |
| **Mahkamova D.** “Til texnologiyasi” terminining metodik talqini | **308** |
| **Ergasheva N.** Ona tili ta’limida zamonaviy metodlarning qo‘llanishi | **313** |
| **Sharopova F.** O‘qib tushunish ko‘nikmasini aniqlash usullari | **317** |
| **Turg‘unova N.** O‘quv loyihalari bilan ishlashning pedagogik asoslari | **323** |
| **Mirzaraxmedova F.** Yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda og‘zaki nutqning ahamiyati | **326** |

| | |
|---|---|
| **Mirvaliyeva D.** Fikrni tushunish va yozma bayon qilish darajasini aniqlash usullari. | **332** |
| **Qo‘yliyeva Sh.** Ona tili ta’limida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari | **338** |
| **Badriddinova U.** Maktab darsliklarini takomillashtirish – zamon talabi | **345** |
| **Abdurahimova G.** O‘zbek bolalar antroponimlarining konnotativ xususiyatlari | **351** |
| **Muratova F.** Test – bilim, ko‘nikma va malakalarni baholovchi topshiriq | **356** |
| **Bobonazarova S.** Boshlang‘ich sinfda badiiy matnlar ustida ishlash. | **366** |
| **Saidaxmatova M.** Bolalar nutqida makon deyksisini ifodalovchi leksik birliklar | **370** |
| **Usmonova Y.** Hamkorlikda o‘qitishning pedagogik va psixologik asoslari | **375** |
| **Eshboyev Q.** Umumiy o‘rta ta’lim uchun so‘zlar darajalanish o‘quv lug‘atining zarurati | **378** |
| **G‘aybulloyeva F.** O‘quvchilarning og‘zaki nutqini baholash zarurati | **382** |
| **TALABALAR MINBARI: TIL VA ADABIYOT TA’LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR** | |
| **Xidirova H.** Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyaning o‘rni va ahamiyati | **388** |
| **Xolmurotova G.** Eshqobil Shukur she’riyatida badiiy san’atlar ifodasi | **393** |
| **Jo‘raqulov S.** “Yulduzlar mangu yonadi” va “Azroil o‘tgan yo‘llarda” asarlaridagi mushtarak va ayricha jihatlar | **401** |
| **Saydazimov A., Muhammadiyeva B.** Bolalar adabiyotida milliy mentalitet | **405** |
| **Mitanova Sh.** “Oydinda yurgan odamlar” va “Bepoyon osmon” asarlarining qiyosiy tahlili | **410** |
| **Rajapova X.** Adabiyotda uchraydigan chumoli obrazi talqini | **415** |
| **Xushvaqova O‘.** Epik asarlarni tahlil qilish usullari (Qissa va hikoya misolida) | **419** |

| | |
|---|---|
| **Boymurodova S.** Alisher Navoiy ijodi Aziz Qayumov talqinida | **423** |
| **Abdirashidova D.** Umumta'lim maktablarida ayol ijodkorlarning asarlarini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish imkoniyatlari | **427** |
| **Erkinova X.** Ona tili darslarida "shaxsiy hikoya" yaratish usuli | **432** |
| **Xamidova M.** Ravish so'z turkumining maktab darsliklarida ifodalanishi | **436** |
| **To'xtayeva F.** Ona tili o'qitishda texnik vositalardan foydalanishning didaktik va nazariy asoslari | **439** |
| **Eshnazarov A.** O'zbek tilining qonuniy mustahkamlanishi, o'zbek tilining bugungi kundagi muammo va kamchiliklari | **444** |
| **Toshpulatova M.** Rus tilining O'zbekiston va boshqa davlatlardagi mavqeyi | **449** |
| **Abdug'afforova M.** Ilmiy insholarning o'ziga xos xususiyatlari | **452** |
| **Abduvaliyeva A.** Iqtisodiyotga oid terminlar o'quv izohli lug'ati | **456** |
| **O'rinova D.** Alisher Navoiy lirik merosining maktab darsliklarid berilishi | **461** |
| **Nurmamatova P.** Rauf Parfi she'riyatida vatan ohanglari | **468** |
| **Gulyamova O.** Intensivlik va kvantifikatsiya kategoriyalari | **471** |
| **Saidaxmatova M.** Bolalar nutqida makon deyksisini ifodalovchi leksik birliklar | **477** |
| **Mamajonova N.** Mustaqillik davri adabiyotining ta'lim jarayonida o'ziga xos xususiyatlari | **482** |
| **Rashidova A.** Didaktik asarlarning o'ziga xos jihatlari va mazmun uyg'unligi | **486** |
| **Masharipov M.M.** Mahmud xo'ja Behbudiy publitsistikasida semantik okkazionalizmlar | **491** |

# GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

***mavzusidagi an’anaviy VII respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari***

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Adadi 100 nusxa. Hajmi 31,2 b/t. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$
«Times New Roman» garniturasi. ofset usulida bosildi.
OOO “BOOKMANY PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22 mavze, 17-b.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10